



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQAROSTANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abdusalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOB VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahyoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdutturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbasjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOIIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185
51	ENHANCING THE MECHANISMS OF HIGHER EDUCATION QUALITY ASSURANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL GOVERNANCE <i>Rakhimov Olim Khamidovich, Zhang Meimei</i>	188
52	TURIZM SUG'URTASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH: TRCM MODELI VA PARAMETRIK SUG'URTA ASOSIDA <i>Maksudova Umeda Sharifovna</i>	194
53	AGROSANOAT MAJMUINI RAQAMLI BOSHQARISH – ZAMON TALABIDIR <i>Kuldashev Erkin</i>	197

54	HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI <i>Maxamatova Malika Abdurashid qizi</i>	201
55	MECHANISMS FOR THE USE OF INTELLECTUAL ALGORITHMS IN OPTIMIZING CONSTRUCTION COSTS AND DEVELOPING SERVICE PROVISION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE <i>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</i>	205
56	DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KONSESSIYA SHARTNOMALARI VA SPV MEXANIZMIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI <i>Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	209
57	FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MOLIYAVIY NATIJALARNI AKS ETTIRISH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Boronov Bobur Farxodovich, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna</i>	214

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lg'in Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o'rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o'rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo'jayor Musurmanovich (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo'yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li (TMC institute “Milliy ta'lim yo'nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo'yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo'lim boshlig'i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma'mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo'limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo'minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MOLIYAVIY NATIJALARNI AKS ETTIRISH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Boronov Bobur Farxodovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
professori v.b., i.f.d. (DSc)

e-mail: boburboronov@gmail.com

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

ORCID: 0009-0001-1083-2762

Annatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllarini tayyorlashning ilmiy-nazariy masalalarini tadqiq etgan olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek farmatsevtika mahsulotlari, jumladan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllari tadqiq etilgan holda farmatsevtika korxonalariga foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotga "Farmatsevtika mahsulotlarini sotishdan moliyaviy natijalar" nomli ilova shakli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: farmatsevtika korxonalari, dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnikalar, xarajatlar buxgalteriya hisobi, buxgalteriya hisoboti, boshqaruv hisoboti, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Abstract: This article examines the scientific views of scholars who have researched the theoretical and methodological issues of preparing financial statements in economic entities. Furthermore, by analyzing the financial reporting forms presented by enterprises manufacturing pharmaceutical products, including medicines, medical devices, and medical equipment, a supplementary form titled "Financial Results from the Sale of Pharmaceutical Products" has been developed for the statement of profit or loss and other comprehensive income of pharmaceutical enterprises.

Keywords: pharmaceutical enterprises, medicines, medical devices, medical equipment, cost accounting, accounting reporting, management accounting, financial reporting, international financial reporting standards (IFRS).

Абстрактный: В данной статье исследованы научные взгляды ученых, изучавших научно-теоретические вопросы составления форм финансовой отчетности на хозяйствующих субъектах. Также на основе анализа форм финансовой отчетности, представляемых предприятиями-производителями фармацевтической продукции, включая лекарственные средства, изделия медицинского назначения и медицинскую технику, разработана форма приложения к отчету о прибылях или убытках и прочем совокупном доходе для фармацевтических предприятий под названием «Финансовые результаты от реализации фармацевтической продукции».

Ключевые слова: фармацевтические предприятия, лекарственные средства, изделия медицинского назначения, медицинская техника, учет затрат, бухгалтерская отчетность, управленческий учет, финансовая отчетность, международные стандарты финансовой отчетности.

Kirish (Введение/Introduction).

Mamlakatimizda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosatlar natijasida xalqaro bozorga chiqish imkoniyati yanada kengayib bormoqda. Jumladan, korxonalarning moliyaviy axborotlarini hisobotlarda shaffof aks ettirish xorijiy investorlarning ehtiyojlarini to'liq qondirishi zaruriyatidan kelib chiqib, bu borada bir qancha normativ hujjatlar ishlab chiqildi. Bunga misol, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu normativ-huquqiy hujjat bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tayyorlanadigan moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga oid qator vazifalarni dolzarb qilib qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonunida "Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyektlarining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir", deb ta'kidlangan. Ushbu axborotlar sirasiga xarajatlarga oid axborotlar korxonalar moliyaviy hisobotlarida muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirish va

xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar moliyaviy natijalarni e'tirof etish, baholash va hisobotlarda aks ettirish uslubiyotini takomillashtirish korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash hamda moliyaviy axborotning shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatmoqda [1], [2].

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritishning huquqiy asoslarini belgilab bergan bo'lib, unda moliyaviy natijalarni to'g'ri e'tirof etish va ishonchli aks ettirish tamoyillari mustahkamlangan [1]. Shuningdek, mamlakatimizda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu farmatsevtika korxonalarida ham moliyaviy natijalarni shakllantirish uslubiyotini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [2], [4].

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish tartibi, ularning tarkibi va mazmuni bo'yicha yangi me'yoriy hujjatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarning to'liqligi, taqqoslanuvchanligi va foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlashga xizmat qiladi [3]. Moliyaviy hisobotni tayyorlashning konseptual asoslari hamda 1-son BHXS (IAS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standartida moliyaviy natijalarni e'tirof etish, daromad va xarajatlarni aks ettirish hamda

moliyaviy hisobot elementlarini baholashning fundamental tamoyillari belgilangan [5], [6].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobi, boshqaruv hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish moliyaviy natijalarni haqqoniy shakllantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, O.I. Ochilov investitsiyalar hisobi va tahlilini takomillashtirish orqali moliyaviy natijalarning ishonchligini oshirish masalalarini yoritgan bo'lsa, N.B. Abdusalomova boshqaruv hisobi, byudjetlashtirish va ichki nazorat tizimlarining moliyaviy natijalarga ta'sirini ilmiy asoslab bergan [7], [8].

Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. B.F. Boronovning ilmiy ishlarida mahsulot tannarxini hisoblash metodologiyasi, umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash, tayyor mahsulotlar hisobi va moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuvlar farmatsevtika sanoati korxonalarida ham moliyaviy natijalarni yanada aniq aks ettirish imkonini beradi [9]–[12].

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va investitsiyalar hisobini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Z.U. Muxammadiyev raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida kapital investitsiyalar hisobining zamonaviy metodologiyasini taklif etib, raqamli texnologiyalar moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishga xizmat qilishini asoslagan [13]. Shu bilan birga, A.F. Mustafoyev moliyaviy hisobotlarda axborotlarni ochiqlash darajasini oshirish korxonalar faoliyatining shaffofligini ta'minlashini ta'kidlaydi [14].

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni takomillashtirish masalalari F.Z. Yusupova tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, muallif daromad va xarajatlarni e'tirof etish, foyda ko'rsatkichlarini shakllantirish hamda moliyaviy natijalar hisobotining uslubiy jihatlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan [15].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda moliyaviy natijalarni aks ettirish uslubiyotini takomillashtirish MHXS talablarini to'liq joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlarini aniq hisobga olish, ichki nazorat va boshqaruv hisobi tizimini kuchaytirish, shuningdek, raqamli buxgalteriya texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, farmatsevtika tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda moliyaviy natijalarni aks ettirish uslubiyotini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, iqtisodiy tahlil, statistik kuzatish, taqqoslash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarini, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot davomida moliyaviy natijalarni e'tirof etish, daromad va xarajatlarni hisobga olish, tayyor mahsulot tannarxini shakllantirish hamda moliyaviy hisobotlarda axborotlarni ochiqlash bo'yicha mavjud uslubiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda moliyaviy natijalarni hisobga olish va hisobotlarda aks ettirish uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqotni tayyorlash jarayonida ilmiy manbalarni izlash, ularni tizimlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va matnning ilmiy uslubini takomillashtirish bosqichlarida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan yordamchi vosita sifatida taxminan 30 foiz darajada foydalanildi. Bunda AI faqat axborotlarni qayta ishlash, ilmiy matnning tahrirlash va uslubiy jihatdan takomillashtirish vazifalarini bajardi. Tadqiqotning ilmiy g'oyasi, metodik yondashuvlari, tahlillari, xulosalari va amaliy tavsiyalari muallif tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results). Moliyaviy hisobot shakllari va ularda aks ettiriladigan axborotlar har bir xo'jalik yurituvchi subyekt uchun muhim hisoblanadi. Chunki, aynan ushbu hujjatda aks ettiriladigan ko'rsatkichlarda korxona

to'g'risidagi ma'lumotlarni tashqi va ichki subyektlarga yetkazib berish va axborotlarni tahlil qilish imkoniyatlarini berish vazifasi yuklatilgan. Manashu moliyaviy hisobotlarni yuqorida zikr etilgan subyektlarga taqdim etish tartibi, ya'ni hisobot ko'rsatkichlarining mazmun-mohiyati, tarkibi, muddatlari va boshqa masalalar mamlakatimizda ishlab chiqilgan me'yoriy-hujjatlarida belgilangan. Jumladan, 2024-yil 8-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi normativ hujjat 2025-yil 1-yanvardan boshlab bank, sug'urta, byudjet tashkilotlaridan tashqari barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda, jumladan farmsevtika tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda BHMS hamda MHXSga asosan moliyaviy hisobot shakllarini shakllantirish va ularni taqdim etish uchun asosiy me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi. Ushbu hujjatga muvofiq, farmatsevtika korxonalar quyidagi moliyaviy hisobot shakllarini taqdim etadilar:

1-jadval.

Farmatsevtika korxonalari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllari¹

№	BHMSga asosan	MHXSga asosan
1	Buxgalteriya balansi	Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot
2	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot
3	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot
4	Pul oqimlari to'g'risida hisobot	Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot (bilvosita usul)
5	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar (moliyaviy hisobotga izohlar)	Ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar (moliyaviy hisobotga izohlar)

Farmatsevtika korxonalari ularning faoliyat yo'nalishlari, mulkchilik shakllariga muvofiq yuqorida jadval ko'rinishida keltirilgan normativ hujjatlarida belgilangan moliyaviy hisobot shakllarini taqdim etadilar. Jumladan, mazkur hujjatning 2-ilovasida keltirilgan "moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shakli farmatsevtika korxonalarida hisobot davrida amalga oshirilgan xarajatlarga oid axborotlarni yoritib berishga mo'ljallangan bo'lib, mazkur hisobot shakli buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida buxgalteriya hisobini yurituvchi farmatsevtika korxonalar tomonidan tayyorlanadi va tegishli tashkilotlarga taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobot shakllarini taqdim etadigan farmatsevtika korxonalarida esa, xarajatlarga oid axborotlarni moliyaviy hisobot orqali taqdim etish maqsadida mazkur normativ-huquqiy hujjatning 6-ilovasida keltirilgan "foйда yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" shakli hamda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida" gi buyrug'i bilan tasdiqlangan xalqaro standartlarda keltirilgan tartib-qoidalar bo'yicha tayyorlaydilar hamda tegishli organlarga taqdim etadilar.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida farmatsevtika korxonalarida biz tomonimizdan quyidagi hisobot shakli tavsiya etildi:

2-jadval.

Farmatsevtika korxonalariga tavsiya etilgan foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotga "Farmatsevtika mahsulotlarini sotishdan moliyaviy natijalar" nomli ilova shakli (ming so'mda)²

Ko'rsatkichlar nomi	Satr ko'di	Farmatsevtika mahsulotlari			Jami mahsulotlar
		Dori vositalari	Tibbiy buyumlar	Tibbiy texnikalar	
Farmatsevtika mahsulotlarini sotishdan tushum	010	31 509 367	5 319 970	7 819 540	44 648 877

¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Sotilgan farmatsevtika mahsulotlarini ng qaytishi	020	309 615	39 915	74 472	424 002
Farmatsevtika mahsulotlarini sotish bo'yicha chegirma	030	483 319	66 490	62 290	612 099
Farmatsevtika mahsulotlarini sotishdan sof tushum (010-020-030)	040	30 716 433	5 213 565	7 682 778	43 612 776
Sotilgan farmatsevtika mahsulotlarini ng tannarxi	050	24 904 631	4 091 777	5 691 272	34 687 680
Farmatsevtika mahsulotlarini sotishning yalpi foydasi (zarari) (040-050)	060	5 811 802	1 121 788	1 991 506	8 925 096
Farmatsevtika mahsulotlari rentabelligi, foizda	070	23,34	27,42	34,99	25,73
Farmatsevtika mahsulotlari marjasi, foizda	080	18,92	21,52	25,92	20,46

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mazkur foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotga "Farmatsevtika

mahsulotlarini sotishdan moliyaviy natijalar" nomli ilova shakli farmatsevtika korxonalarining moliyaviy natijalariga oid ko'rsatkichlarni o'ziga xos tarzda yoritib beradi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Ilmiy-izlanishlarimiz natijasida biz tomonimizdan quyidagi ahamiyatga molik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan. Farmatsevtika mahsulotlarini sotish natijalari bo'yicha hisobotga tavsiya etilgan ko'rsatkichlar har bir mahsulot turlari bo'yicha moliyaviy axborotlarni alohida taqdim etish imkoniyatini bergan. Bu esa, farmatsevtika mahsulotlari daromad va xarajatlarini har bir bosqichda qiyosiy tahlil qilishga, xarajatlarni samarali boshqarishga va eng asosiysi foyda ko'rsatkichlarini aniqlashga muhim omillardan biri sanaladi.

Ikkinchidan. Farmatsevtika korxonalari moliyaviy holatini aniqlashda marja va rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, mazkur tadqiqot ishida farmatsevtika korxonalarida ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash hamda hisobotlarda aks ettirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Uchinchidan. Mazkur hisobot shakli farmatsevtika korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobotlarni tayyorlashga va ularni taqdim etishga, farmatsevtika mahsulotlarining turlari bo'yicha moliyaviy natijalar va ularning rentabelligini aniqlashga, buxgalteriya hisobotlarining ommapobligini ta'minlash orqali axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlarini to'liqroq qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, farmatsevtika korxonalarida keng qamrovli axborotlar bilan ta'minlash orqali korxona investitsion jozibadorligini oshirishga erishiladi deb hisoblaymiz. Qolaversa, mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi farmatsevtika korxonalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarorida keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, № O'RQ-404.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori. 2020-yil 24-fevral. PQ-4611.
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i. 2024-yil 8-oktyabr. 181-son.
4. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi Buyrug'i. 2022-yil 10-noyabr. 61-son.
5. 1-son BHXS (IAS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish"
6. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 12-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan. 3530-son.
7. Ochilov O.I. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda investitsiyalar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -T.: 2021, 228 b.
8. Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va byudjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2019-y., 26-bet.
9. Boronov B.F. Yog'-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish. -T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2023, 244 b.
10. Boronov, B. (2022). Mahsulot tannarxini hisoblashda umumishlab chiqarish xarajatlarining o'zni va ularning hisobini takomillashtirish. Economics and Innovative Technologies, 10(6), 31-42.
11. Boronov, B. F. (2022). Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari hisobining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022, 202284.
12. Farkhodovich, Boronov Bobur. "IMPROVEMENT OF FINANCIAL REPORTING ON FINISHED PRODUCTS IN THE OIL INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY 25: 38.
13. Muxammadiyev Z.U. Korxonalarining raqamli va yashil iqtisodiyotga kapital investitsiyalari hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. – Samarqand.: "STAP-SEL" MCHJ. Nashriyot-matbaa ijodiy bo'limi. 2025-y. - 226 bet.
14. Mustafoyev A.F. Nodavlat ta'lim tashkilotlari moliyaviy hisobotida axborotlarni yoritish masalalari. // Yashil iqtisodiyotda innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, 2024. – B. 218-221.
15. Yusupova F.Z. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning uslubiy masalalari. //“Xalqaro moliya va hisob jurnali”. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 3, June 2024. ISSN: 2181-1016.